

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma
Huquqida
UDK: 338.48 (575.1)*

KURBANBAYEV JAMSHID FARXOD UG‘LI

**O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI**

71010401 – Turizm (Ziyorat turizmi) mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan


DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. Aliyeva M. T

Toshkent – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Turizm va mehmonxona biznesi” kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar



i.f.d., prof. M. Aliyeva

Kafedra mudiri




i.f.d., prof. A. Eshtayev

Kechki ta'lim va magistratura
fakulteti dekani




i.f.d., prof. J. Karimqulov

Qaytarib berilgan
soni 1 ta


Men, Zurbanbayev Jamshid Farxod ugli
(F.I.Sh.)

ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.



(talabaning imzosi)

(kun)

(oy)

(yil)

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI” KAFEDRASINING
№ 34 BAYONNOMASIDAN
KO‘CHIRMA

“18” aprel 2025 yil

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: kafedra mudiri, i.f.d., prof. A. Eshtayev

Qatnashganlar:

Kafedra professori A. Abduvohidov, professor A. Norchayev, professor M. Aliyeva, professor S.Safayeva, professor D. Abidova, PhD M.Nurfayziyeva, PhD D.Umirova, PhD N. Jo‘rayeva, katta o‘qituvchi D. Raximova, katta o‘qituvchi M.Mo‘xanov, katta o‘qituvchi N. Oppoxonov, katta o‘qituvchi A. Baxromov, katta o‘qituvchi B. Xoshimov, katta o‘qituvchi F. Halimova, katta o‘qituvchi H. Egamnazarov assistent N.Rasulova, katta o‘qituvchi M. Xushnazarova (kotiba)

KUN TARTIBI:

“Turizm va mehmonxona biznesi” kafedra 71010401-Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha), 71010401- Turizm (Ziyorat turizmi) mutaxassisligi 2- kurs MTXT-01, MTXT-21 va MTZ-01 guruh talabalarining dastlabki himoyalari muhokamasi

(A. Eshtayev)

Ushbu masala yuzasidan kafedra mudiri professor A. Eshtayev so‘zga chiqib, jumladan, MTXT-01, MTXT-21 va MTZ-01 guruh talabalarining dastlabki himoyalari grafigiga asosan 2025-yil 9-apreldan 17-aprelgacha quyidagi talabalarning magistrlik dissertatsiyalari dastlabki himoyasi rejalashtirilganligi to‘g‘risida axborot berib o‘tdi. Shuningdek, dastlabki himoya natijalariga ko‘ra komissiya a‘zolari tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni yakuniy himoyagacha tezkorlik bilan bartaraf etishlari lozimligi ta‘kidlandi:

1. MTZ-01 guruh talabasi Zaripov Toxirjon “Ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish yo‘llari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yaxti yaxshi yoritilmagan. Ikkinchi bobda kamchiliklar mavjud va boblar oxirida xulosalarda kamchiliklar mavjud.

ANNOTATSIYA

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi “O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning imkoniyatlari va muammolari” mavzusiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ziyorat turizmi tushunchasi, uning boshqa turizm turlari bilan o‘zaro bog‘liqligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda davlat siyosatidagi o‘rni nazariy jihatdan yoritilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — O‘zbekiston Respublikasida ziyorat turizmi rivojlanishining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Dissertatsiyada statistik tahlil, so‘rovnoma usuli, taqqoslash, kuzatish va xarita asosida tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Muhim ziyorat maskanlari asosida amaliy kuzatuvlar olib borildi. So‘rovnoma orqali mahalliy aholi va sayyohlarning fikrlari o‘rganilib, ularning turizmga munosabati tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar — infratuzilma zaifligi, xizmatlar sifati pastligi, marketing va raqamlashtirish darajasining sustligi aniqlangan. Shunga ko‘ra, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, mahalliy resurslarni jalb etish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha aniq amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiya natijalari O‘zbekistonda ziyorat turizmini barqaror rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Ziyorat turizm, ichki va tashqi turizm, ziyoratgoh joylar, madaniy joylar, turizmni tahlil qilish.

ABSTRACT

This master's dissertation is devoted to the topic "Opportunities and Challenges for the Development of Pilgrimage Tourism in Uzbekistan". The study theoretically examines the concept of pilgrimage tourism, its interrelation with other types of tourism, its socio-economic significance, and its place in state policy.

The main objective of the research is to analyze the current state of pilgrimage tourism development in the Republic Uzbekistan, identify existing problems, and develop scientifically grounded proposals and recommendations for the advancement of this sector.

The dissertation employs methods such as statistical analysis, surveys, comparison, observation, and map-based assessment. Practical observations were conducted at significant pilgrimage sites. Through surveys, the opinions of local residents and tourists were studied to analyze their attitudes toward tourism.

As a result of the research, key problems hindering the development of pilgrimage tourism in the regions — such as weak infrastructure, low service quality, and underdeveloped marketing and digitalization—were identified. Accordingly, practical proposals and recommendations were developed to expand public-private partnerships, engage local resources, introduce modern information technologies, enhance human capacity, and foster international cooperation.

The results of the dissertation can serve as a scientific and practical source for ensuring the sustainable development of pilgrimage tourism in Uzbekistan.

Keywords: Pilgrimage tourism, domestic and inbound tourism, pilgrimage sites, cultural heritage sites, tourism analysis.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ZIYORAT TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI	9
1.1 Ziyorat turizmi tushunchasi, mazmuni va turlari.....	9
1.2 Ziyorat turizmining tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati.....	21
I bob bo'yicha xulosa.....	38
II BOB. O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINING HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	40
2.1 O'zbekistonda ziyorat turizmi bo'yicha mavjud salohiyati	40
2.2 Ziyorat turizmi bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili.....	44
2.3 Ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlari.....	52
II bob bo'yicha xulosa.....	58
III BOB. O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'LLARI	60
3.1 Qoraqalpog'istonda ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlari.....	60
3.2 Ziyorat turizmini rivojlantirishda xorij tajribasi yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar.....	67
III bob bo'yicha xulosa.....	79
XULOSA.....	80
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	83
ILOVALAR.....	89

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimiz hududida joylashgan Islom olamining mashhur ziyorat maskanlari – Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G‘ijduvoni, Imom Termiziy, Shoxi Zinda, Qaffol Shoshiy kabi allomalar maqbaralari nafaqat diniy, balki madaniy-ma‘naviy meros obyektlari sifatida ham yuksak ahamiyatga ega.

Ziyorat turizmi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan katta salohiyatga ega bo‘lib, u orqali nafaqat xorijiy valyuta oqimini ko‘paytirish, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash mumkin. Shuningdek, bu yo‘nalish xalqaro miqyosda O‘zbekistonning turizm brendini shakllantirishga xizmat qiladi.

Biroq, ziyorat turizmi rivojida qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni tizimli hal etish zarur: turistik infratuzilmaning yetarli emasligi, xizmatlar sifati pastligi, xalqaro reklama va axborot kompaniyalarining sustligi, kadrlar salohiyatining yetishmasligi va boshqalar. Shu sababli, O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari va muammolarini chuqur o‘rganish, bu borada ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiyada O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo‘llari taklif qilinadi.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi. Mazkur tadqiqot ishining obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan ziyorat turizmi sohasi olingan. Tadqiqot ishining predmetini ziyorat turizmini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar, muammolar va ularning yechimlari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari – O‘zbekistonda ziyorat turizmi sohasining hozirgi holatini o‘rganish, uni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil